

**CHET TILINI O'RGANISHDA VIDEO MATERIALLARDAN
FYDALANISH VA UNING SAMARASI.**

**OMONOVA DILSORA SUNNATULLA QIZI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI TALABASI**

ANNOTATSIYA: Mazkur maqola "Chet tilini o'qitishda autentik video materiallardan foydalanib o'quvchilarning iltimoiy-madaniy kompetensiyasini shakllantirish" ning samarli usullari tahlil qilingan. Har qanday til o'rganuvchi uchun xorijiy tilni o'zlashtirish qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Til o'rganish jarayonida o'qituvchi tomonidan turli yoshdagi til o'rganuvchilarga taqdim etilyotgan audio va videomateriallarni saralash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Videomateriallar bu jarayonda muhim o'rinni egallaydi.

KALIT SO'ZLAR: *Autentik video materiallar, kommunikativ kompetensiya, xorijiy til, metod, o'qitish metodi.*

ANNOTATION: This article analyzes the effective methods of "Formation of socio-cultural competence of students using authentic video materials in foreign language teaching." Learning a foreign language is challenging for any language learner. In the process of language teaching, the audio and videomaterials provided by the teacher to language learners of different ages were sorted step by step. Video materials are important in language teaching

KEY WORDS: *Authentic video materials, communicative competence, method, foreign language, teaching methodology.*

Keyingi yillarda jamiyatning turli sohalarida chet tilini o'rganish va unda mustaqil gapira olish asosiy talabga aylanib bormoqda. Xususan, jahon miqyosida qaraydigan bo'lsak, ularning yangi kadrlarga qo'yayotgan asosiy talablari- chet tilida muloqot qila olishi va komputer texnologiyalaridan xabrdor bo'lishidir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" va " Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" gi 1875-sonli O'zbekiston

Respublikasi Prezidenti qarori chet tillarni o'rganish davlat ahamiyatig molik masala ekanligini ko'rsatadi.

Shu o'rinda, chet tilini autentik video materiallar asosida o'qitishni yuqoridagi talablarning bajarilishi va kommunikativlikka asoslangan til ta'limining asosiy vositasi sifatida o'rganuvchini real hayotiy vaziyatlarga tayyorlash vazifalarini yengillashtirishning yechimi deb qarashimiz kerak. Bundan tashqari autentik videomateriallar til o'rgatishda real hayotiy vaziyatning alternativ ko'rinishi sifatida yordam beradi." Autentik audio-video materiallarning ommalashuvi til o'rganuvchilarga interaktiv til muhitini yarata olishidadir"- deb ta'kidlaydi rus olimi G.A.Vorobyov. Ma'lumotlarning asosiy qismini videomateriallardagi harakatli nutqlar tashkil etishi ham fanda aniqlangan. Bu metodni darsga tatbiq etish borasida olib borilgan o'rganish va izlanish quyidagi xulosalarga olib keldi.

- Autentik videomateriallardan foydalanish , avvalo, til o'rgnuvchiga u yoki bu chet tilida muayyan ijtimoiy guruhlarning aniq bir vaziyatdagi , so'zlahuv tilining barcha xususiyatlari (emotsional bo'yoqdorligi, tushunish uchun aniq bo'lishi, va uning o'rganuvchiga aniq yetib borishi) kabi real muloqotni taqdim etadi.

- autentik videomateriallar til o'rganuvchilarda asosiy ahamiyatga ega bo'lgan gapirish(speaking) va eshitish (listening) ko'nikmalarini keskin ravishda oshirishga yordam beradi.

Autentik video materiallarni darsda qo'llashning ikkinchi o'ziga xos jihati- o'rganilayotgan tilning qiyinligi, so'zlar xilma- xilligi, nutqning tezligi, turli leksik birliklarga boyligidir. Bu orqali til o'rganuvchi o'z ona tilisi bo'lmagan tilni aniq va ravon o'rganishiga yordam beradi. Chunki real voqelikka asoslangan holda taqdim etilgan videolardagi nutqda qo'llangan qochirimlar, kinoyalar, mahalliy tilda so'zlashuvchilarga- nativ speakerlargagina ma'lum leksik birliklarning qo'llanilgani juda yaxshi samara beradi.

Autentik video materiallar quyidagocha mezonlarga to'g'ri kelishi kerak :

- autentik videomateriallarning ta'lim maqsadlariga muvofiqligi;
- autentik videomaterialdagi axborotning yangiligi va ixchamligi;
- autentik videomaterialni o'quvchining chet tili bilim darajasiga mosligi;

-tanlangan autentik videomaterial mazmunining hayotiyligi.

Audio – video materiallarni darsda qo'llashning an'anaviy uch bosqichi (PRE-WATCHING, WHILE-WATCHING VA POST-WATCHING stages) mavjud:

- namoyishdan oldingi bosqich;(autentik videomaterialni qo'llashdan oldingi bosqich)
- namoyish bosqichi(videomaterial ko`rsatilayotgan bosqich)
- namoyishdan keyingi bosqich(autentik video materialni qo'llash bosqichi).

Yuqorida ta'kidlangan metod asosida samarali mashg'ulot olib borish , ko'zlangan natijaga erishish uchun pedagog har bir bosqichning vazifasiga muvofiq mashqlar tipologiyasidan kelib chiqib darsni tashkil etishi talab etiladi. Bunda birinchi bosqich til o'rganuvchilarni viedo namoyishiga tayyorlashga yo'naltirilgan bo'lib, o'quvchilarga motivatsiya berish, ularni darsga qiziqtirish, mavzu bilan yaqindan tanishtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish kabi muhim vazifalarni o'z ichiga oladi. Pedagog video namoyishdan avval:

- Videomaterial mvzusini yoritshda yordam beradigan kalit so'zlar yordamida mavzuni muhokama qilish;
- Taqdim etildigan videomaterialni dastlab ovozsiz namoyish etish (bunda til o'rganuvchilar nima haqida so'z ketayotganini taxmin qilishi yoki erkin ovozashtirish imkoniyati paydo bo'ladi)

Ikkinchi bosqichda usha video materialni muayyan qismigacha ko'rsatilib, o'quvchilarga muhokamaga beriladi.

So'nggi bosqichda videomaterial to'liq namoyish etiladi . bu bosqich tushunish bosqichi hisoblanadi. Bundan tashqari videomaterial asosida yozma va og'zaki nutqni rivojlantirishga qaratilgan mashqlardan foydalanish yoki videomaterialda foydalanilgan fikrni davom ettirishga yo'naltirilgan topshiriqlar beriladi. J.Xarmerning videomateriallarni darsda qo'llash texnikasi to'g'risida berilgan tavsiyalarga ko'ra :

- videomateriallarni ovozsiz ko'rish;(silent viewing)
- videomaterialni muayyan qismini to'xtatib qo'yish (Freeze framing)

Bunda talabalardan lavhaning davomini taxmin qilish talab etiladi;

- qisman ko`rish(PARTIAL VIEWING)
- tasvir yoki ovoz(PICTURE OR SPEECH)
- chet tili ta`limida bu kabi videoni qo`llash usullar ,avvalo, o`quvchilarda qiziqish va motivatsiya berish.

Xulosa o`rnida shuni ta`kidlash joizki,mavzu bo`yicha til o`rganuvchilar auditoriyasiga moslangan autentik videomaterilla o`quvchilarga kerakli ma`lumotni ko`rish va tinglash va imo-ishora orqali tushunish, namoyish etilgan lavhaning madaniy xususiyatlarini to`laligicha anglash bilan birga ,ular asosida maqsadga yo`naltirilgan mashqlr to`plami til o`rganuvchining kommunikativ kompetensiyasini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Alimova .S.F.Morpological classification of language
2. Anvarovna.P,N. (2022) PHILOLOGY STUDENTS FOREIGN LANGUAGE INTERCULTURAL COMPETENCE DEVELOPMENT IN TEACHING ENGLISH. RESULTS OF EXPERIMENTS.
3. Jalilov.J. Chet tilini o`qitsh metodikasi. Toshkent. 2012
4. Nilufar Nematullayevna Zubaydova (2019) The teaching of English for specific purposes. : New York.USA,-30-33-B